



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

TARJIMANING SOHALAR BO'YICHA QOLLANILISHI VA FAN YUZASIDAN TUTGAN O'RNI

Boltaboyeva Ma'rifatxon Baxromjon qizi,
Namangan Davlat Pedagogika Instituti
O'zbek va xorijiy tillar kafedrası o'qituvchisi

Azimov Samandar Murodjon o'g'li,
Namangan davlat pedagogika Instituti, O'zbek va xorijiy tillar kafedrası talabasi
E-mail: azimovsamandar196@gmail.com

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15183967>

Annotatsiya : Ushbu maqolada tarjima nazariyasi va uning hozirgi kundagi o'rni, sohalar bo'yicha qo'llanishdagi ahamiyati, lingvistik taxlili, madaniyatlararo aloqalari, ijtimoiy fanlar va ilm fan texnologiyalaridagi ahamiyati ham atroflicha keltirib berilgan. Tarjima nazariyasining sohalariga oid hozirgi davr talabi buyicha dolzarblashgani haqida ham yetarlicha ma'lumot keltirilgan.

Kalit so'zlar: Tarjima nazariyasi, madaniyatlararo aloqa, ijtimoiy fanlar, ilm-fan texnologiyalari, xalqaro munosabatlar, ta'limda tarjima, xalqaro kommunikatsiya, innovatsion yondashuvlar, xizmat ko'rsatish, tarjima jarayoni.

Аннотация: В статье представлен всесторонний обзор теории перевода и ее современной роли, значения в приложениях между дисциплинами, лингвистического анализа, межкультурной коммуникации и значения в социальных науках, науке и технике. Также предоставлено достаточно информации об актуальности теории перевода для современных потребностей этой области.

Ключевые слова: Теория перевода, межкультурная коммуникация, социальные науки, наука и технологии, международные отношения, перевод в образовании, международная коммуникация, инновационные подходы, предоставление услуг, процесс перевода.

Abstract: The article presents a comprehensive overview of translation theory and its contemporary role, significance in applications across disciplines, linguistic analysis, intercultural communication and significance in social sciences, science and technology. It also provides sufficient information on the relevance of translation theory to the contemporary needs of the field.

Keywords: Translation theory, intercultural communication, social sciences, science and technology, international relations, translation in education, international communication, innovative approaches, service provision, translation process.

Tarjima nazariyasi hozirgi kunga kelib eng yuqori darajada yuksalayotgan fanlardan bidir, bu bilan tarjima o'zining tarixiga ega ekanligi ko'rishimiz mumkin. Tarjima inson faoliyatining qadimiy lakunalaridan biridir. Xalq tilidan o'zga tilga o'zaro muloqot qilish, fikrlar, madaniyatlar ulashish uchun yordam berdi. XX asrda fan sifatida shakllangan bo'lib, bu sohaga tarjimashunoslik deb nom berildi^[1]. Fan

¹ G'.Salomov. tarjima san'ati . Maqolalar to'plami.-T."Fan",1993.-B.88



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

sifatida shakllanishi uchun yordam bergan taniqli tilshunos va tarjimashunos olimlarning nazariyalari alohida o'rin tutadi jumladan V.Komissarov, A.Fyodorov, L.Barxudarov, Y.Nayda, J.Ketford hisoblanishadi^[2]. Tarjima lisoniy, adabiy estetik hodisa bo'lib, tarjimondan ijodkor bo'lishi talab etiladi. Chet tilini bilish orqali o'zga yurtning madaniyati urf odati haqida bilishimiz mumkin. Yuqorida ta'kidlab o'tilgan olimlarimizning ishlari tufayli esa tarjimashunoslikning qay darajada ahamiyat kasb etishini ham bilib olishimiz mumkin.

Tarjimashunoslik san'ati barcha sohani qamrab olgan yirik bir soha. Tarjimashunoslik fani tilshunoslik, madaniyatshunoslik, kommunikatsiyada katta o'rin egallaydi^[3]. Tarjima jarayonida ma'lum bir narsani boshqasiga shunchaki o'giribgina qolmay uni asl tilda yozilgan kabi qollashimiz kerak, bu esa tarjimaning qanchalik aniq, tog'ri va sifatli chiqishida yordam beradi. Asarlarning tarjimasiga e'tibor beradigon bolsak, asl manba tilini tarjima tiliga o'giriyo'tganimizda har bir so'zga etiborli bo'lishimiz va ma'no jihatdan uni asli bilan tog'ri kelishini ta'minlashimiz kerak, chunki mohir tarjimon har taraflama grammatik, punktuatsion, leksik jihatdan tog'ri moslashtirib tarjima qilishi shart. Ushbu sohalarning yana bir ustuvor jihati shundaki shevaga xos so'zlarning tarjimasi bo'yicha ko'plab ma'lumotlarga ega bo'lishimiz mumkin. Badiiy asarlarning tarjima qilinishi, ilmiy-texnikaviy adabiyotlarni tarjima qilishda, lingvistik tadqiqotlarning tarjimasida asosiy o'rin egallagan. Tarjima jarayonida siyosiy aloqalarni tarjima qilishda notogri yoki imloviy hatolar qilsak bu ikki davlat o'rtasidagi aloqalarni uzilishiga sabab bolishi mumkin shuning uchunsinxron tarjimaga eng yuqori saviyali insonlarni tanlab olishadi bo'lsak davomida agarda noto'g'ri ketadigan bo'lsa jiddiy kelishmovchilikga sabab bo'lishi mumkin.

Badiiy tarjima bu bir tildagi asarni o'zga tilga tarjima qilish orqali yangi bir asar yaratish demakdir, bu esa yurtimizda yevropa tillaridan ko'plab tarjimalar bo'lishiga va yanada ko'proq yangiliklar olishimizga yordam beradi. "Darhaqiqat, butun boshli, bebaho asarni tarjima qilish oson ish emas, va umuman olganda asarning inglizcha tarjimasi asliyatiga juda yaqin keladi, ammo asar faqatgina ilmiy faktlardan emas, folkloristik, adabiy, madaniy va diniy qarashlarni o'z ichiga olgani uchun ham, turkiyzabon bo'lmagan inson tushuna olmaydigan madaniy, folkloristic va diniy

² I.G'ofurov, O.Mo'minov, N.Qambarov. Tarjima nazariyasi. "Tafakkur bo'stoni" nashriyoti. – Toshkent 2012.-B.116

³Usmonova Zarina Habibovna Reyd Bredberining "Marsga hujum"(The Martian Chronicles) asari bilvosita tarjimasida tarjima usullari va o'ziga xos xususiyatlari.Maqola FarDu.Imiy xabarlar 2-son 2023. B.732



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

nuanslar ham mavjud, bu ba'zida asarni tarjima qilish jarayonida bazi bir chalkashliklarga sabab bo'lgan bo'lishi mumkin"^[4].

Tarjimashunoslikni shu kabi savdo aloqalari, yuridik aloqalar va sud-huquq tizimlaridagi ahamiyatiga ham alohida e'tibor berishimiz muhimdir. Savdo aloqalarida tarjimashunoslikni bo'limlarga bo'lib chiqqan holda tahlil qila olamiz va ularni amaliy jihatdan ko'radigan bo'lsak reklamalar tarjimasi yoki savdo aloqalari mobaynida suhbatlashish va shartnomalar tuzishda bilinadi. Sababi mahsulotning tafsifi uning qanday ekanligi va qanday ishlatilishini foydalanuvchilarga to'la qonli tushuntirish kerak, ko'rsatmalarga rioya etish jarayonida ular samarali natijalarga erishadilar.

Reklama tarjimasi ham o'z o'rnida bir necha guruhlariga bo'lingan bo'lishi mumkin. Misol uchun oziq-ovqat mahsulotlari, texnikaviy qurilmalar, va albatta dori-darmon vositalarining tarjima qilinishida tarjimondan har bir yo'nalish bo'yicha alohida bilim va mas'uliyat talab etiladi. Farmaseftikaga oid reklama tarjimalari tog'ri va aniq tarjima qilinishi zarur, chunki bu inson hayoti bilan uzviy bog'liq, bunga jiddiy va ma'suliyatli bo'lishimiz va o'z ishimizni puhta qilishimiz zarur. Bu esa tarjimondan kimyoviy va boilogik bilimlarni ham talab etiladi. Tarjimashunoslikning jurnalistika sohasiga nazar tashlaydigan bo'lsak, ommaviy-axborot vositalari va jurnalistikada axborot almashinuvi keskin va tezkor kechadi. Xalqaro ma'lumotlarni tinglovchilarga tezkorlik bilan yetkazib berish, xato va kamchiliklarga yo'l qo'ymaslik kerak. Xorijiy axborot manbalarini tog'ri tarjima qilish, aniq sodda va londa chiqishiga tarjimon jurnalislar ma'suldirlar.

Xulosa qilib aytganda tarjima nazariyasining oldida turgan vazifasi va uning tutgan o'rni yoqolib qolishi mumkin, bu esa "tarjimaning umumiy badiiy sifat darajasiga qattiq salbiy ta'sir ko'rsatadi". Bu haqda mashhur o'zbek tarjimoni G'aybulla Salomov shunday degan: "Tarjimon ko'pincha "qoidasiz o'yinda qatnashganlikda", "Hijjalab o'tirganlikda", "asl nusxaning faqat ruhini berishga intilganlikda", "ko'r-ko'rona nusxa ko'chirganlikda" ayblanib, ming tana dashnomga giriftor qilinadi." Shuning uchun ham bu nozik va juda mashqqatli jarayondir deb tarjimon uchun o'zining tasallisini bergan. Chunki tarjimon o'zicha tarjima qiladi, bilimlariga tayanadi, ammo buni ommaga taqdim etganda ko'plab tanqidlarga uchraydi.

⁴ Azimov S.M. The place and significance of the English language worldwide International journal of scientific researchers. 2024.P.320



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. G'.Salomov. tarjima san'ati . Maqolalar to'plami.-T.."Fan",1993.-B.88
2. I.G'ofurov, O.Mo'minov, N.Qambarov. Tarjima nazariyasi. "Tafakkur bo'stoni" nashriyoti. – Toshkent 2012.-B.116
3. Usmonova Zarina Habibovna Reyd Bredberining "Marsga hujum"(The Martian Chronicles) asari bilvosita tarjimasida tarjima usullari va o'ziga xos xususiyatlari.Maqola FarDu.lmiy xabarlar 2-son 2023. B.732
4. Azimov S.M. The place and significance of the English language worldwide International journal of scientific researchers. 2024.P.320
5. Azimov S.M. , Abdumuminova D.K. xorijiy tillarni o'quvchilarga o'rgatishda metodik usul va yondashuvlar hamda o'qituvchining psixologik bilimi. 2024 B.238
6. Mamadaliyeva S.A. , Azimov S.M. methods of teaching english for secondary school students during the era of modernization. 2024. P.356